

Milliy valyutada korporativ bank kartalarini ochish va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha Ommaviy oferta shartnomasi

1.1. Ushbu milliy valyutada korporativ mijozlar uchun korporativ bank kartasini ochish va ularga xizmat ko'rsatish shartnomasi (keyingi matnda – Shartnoma) "KDB Bank O'zbekiston" Aksiyadorlik jamiyati tomonidan taqdim etilgan Ommaviy oferta (keyingi matnda – Oferta) hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 369-moddasi 2-qismiga muvofiq barcha korporativ mijozlarga quyida ko'rsatilgan shartlar asosida Shartnoma tuzish bo'yicha rasmiy Ommaviy Oferta hisoblanadi.

1.2. Korporativ mijoz ushbu Ofertaning 2.2-bandida nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirgan va shu bilan korporativ mijozning mazkur Ofertada belgilangan shartlar asosida Shartnoma tuzishga rozilagini tasdiqlagan paytdan boshlab Shartnoma tuzilgan deb hisoblanadi va kuchga kiradi

1.3. Joriy va avvalgi Oferta versiyalari Bankning veb-saytida quyidagi manzilda joylashtirilgan: <https://kdb.uz>.

1.4. Asosiy atamalar va ta'riflar:

Bank – emissiya qiluvchi bank - "KDB Bank O'zbekiston" Aksiyadorlik jamiyati, shu jumladan uning filiallari;

Korporativ mijoz/Mijoz – rezident yuridik shaxslar va ularning vakolatxonalari va/yoki filiallari, davlat ro'yxatidan o'tgan va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar, O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib boruvchi dehqon xo'jaliklari, norezident yuridik shaxslar (diplomatik vakolatxonalar, xalqaro tashkilotlar va ularning filiallari, vakolatxonalar va tijorat faoliyatini amalga oshirmaydigan boshqa xorijiy tashkilotlarning doimiy muassasalari), tovar-xomashyo birjalarining ochiq elektron savdo ishtirokchilari, tashkilotlangan savdolarda aksiyalar va korporativ obligatsiyalarni sotib olayotgan (yoki sotayotgan) xorijiy investorlar, shuningdek, kripto-birjada kripto-aktivlar savdosida ishtirok etayotgan norezident yuridik shaxslar;

Bank-ekvayer – bank kartalari orqali hisob-kitoblar va to'lovlar bo'yicha moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiruvchi hamda terminal va bankomatlar orqali bank kartalarini qabul qilishni tashkil etuvchi kredit tashkiloti;

Ekvayring – bank kartalaridan foydalanish bilan bog'liq savdo va xizmat ko'rsatish korxonalari bilan hisob-kitoblar o'tkazish jarayoni;

Korporativ bank kartasi (KBK) – Bank tomonidan Mijozga beriladigan bank kartasi bo'lib, korporativ bank kartasi egasiga korporativ bank kartasi hisobvarag'idagi qoldiq mablag'lar doirasida tovarlar, ishlar yoki xizmatlar uchun naqdsiz to'lovni amalga oshirish imkonini beradi;

Korporativ bank kartsi hisobvarag'i (KH) – O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ochilgan bank hisobvarag'i bo'lib, undagi mablag'lardan korporativ bank kartasi orqali foydalanish mumkin;

KBK egasi – Mijoz yoki u tomonidan vakolat berilgan shaxs, Bank bilan tuzilgan shartnoma asosida KBKdan foydalanadi. Shu bilan birga, Mijoz KBK egasi sifatida faqat Mijoz bilan to'liq moddiy javobgarlik bo'yicha shartnoma tuzgan xodimni vakolatli qilishi mumkin;

Qo'shimcha KBK – Mijozning arizasiga binoan qo'shimcha KHga biriktirilgan holda qo'shimcha tarzda berilgan KBK;

Savdo-xizmat ko‘rsatish korxonasi – davlat ro‘yxatidan o‘tgan va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs, tovar ishlab chiqaruvchi, ish bajaruvchi yoki xizmat ko‘rsatuvchi, bank-ekvayer bilan tuzilgan shartnoma asosida bank kartalari orqali to‘lovlarni qabul qilish majburiyatini oladi;

Savdo terminali – bank kartalari egalari to‘lov operatsiyalarini amalga oshirish va o‘tkazilgan operatsiyalar bo‘yicha sliplar yaratish imkonini beruvchi qurilma;

Slip – korporativ bank kartasi yordamida amalga oshirilgan operatsiyani tasdiqlovchi terminal yoki bankomat kvitansiyasi bo‘lib, unda operatsiya summasi, turi, sanasi va KBKni, terminal yoki bankomatni aniqlash imkonini beruvchi ma'lumotlar mavjud bo‘ladi;

Shaxsiy identifikatsiya raqami (PIN) – har bir korporativ bank kartasiga berilgan 4 raqamli kod bo‘lib, savdo terminallari va/yoki bankomatlarda operatsiyalarni amalga oshirishda kartaning shaxsini tasdiqlaydi va kartochka hisobvarag‘idagi mablag‘larga bo‘lgan huquqni tasdiqlaydi;

Bank tariflari – korporativ mijozlarga taqdim etiladigan bank xizmatlari uchun to‘lov stavkalarini belgilovchi tizim;

To‘lov tizimi – mahalliy va xalqaro to‘lovlarni naqdsiz amalga oshirish hamda naqd pul olish imkonini beruvchi dasturiy-texnik vositalar, hujjatlar va tashkiliy-texnik yechimlar majmui. Masalan, Uzcard, HUMO, VISA va boshqalar;

Ariza – Shartnoma bo‘yicha KBK chiqarish uchun Bank tomonidan belgilangan shakldagi Mijozning arizasi bo‘lib, Shartnomaning ajralmas qismidir;

Overdraft – Mijozning KH bo‘yicha mablag‘lar Bank tomonidan ruxsat etilmagan tarzda texnik sabablarga ko‘ra ortiqcha chiqim qilib yuborilishi;

Kunlik operatsiyalar limiti – Bankning ichki hujjatlariga va Shartnomaga muvofiq KBKdan foydalanilgan holda amalga oshirilgan operatsiyalar bo‘yicha maksimal summa va/yoki operatsiyalar soni bo‘yicha o‘rnatilgan limit;

So‘z-parol – Mijoz tomonidan tanlangan va Arizada yoki Mijoz tomonidan Bankka taqdim etilgan boshqa yozma hujjatlarda ko‘rsatilgan raqamli, harfli yoki harfli-raqamli kombinatsiya bo‘lib, Mijozni telefon orqali identifikatsiyalash uchun foydalaniladi;

Bank kuni – Bankning bank operatsiyalari va mijozlarga xizmat ko‘rsatish uchun ochiq bo‘lgan kuni;

Bankning operatsion kuni – Bank kuni davomida hisobvarag‘larga moliyaviy operatsiyalarni qayd qilish va to‘lov hujjatlarini qabul qilish uchun ajratilgan vaqt;

Masofaviy bank xizmatlari tizimi (keyingi matnda – MBX tizimi) – mijozlarning Bank bo‘limiga tashrif buyurmasdan hisobvaraqlar bo‘yicha moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishi va Bank bilan xavfsiz va tezkor ma'lumot almashuvi uchun mo‘ljallangan dasturiy-texnik kompleks.

2. Shartnoma predmeti

2.1. Mijoz tomonidan ushbu Ofertaning shartlarini qabul qilish orqali tuziladigan Shartnoma predmeti Bank tomonidan O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasida KBKga mablag‘larini o‘tkazish uchun Tranzit hisobvarag‘ini ochish, korporativ KHni ochish, KBK chiqarish va KBKdan foydalanish orqali o‘zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish hisoblanadi.

2.2. Ushbu Oferta shartlarini qabul qilish Mijoz tomonidan ushbu Ofertaning 1-ilovasiga muvofiq shakldagi arizani, Korporativ mijoz rahbarining imzosi va Mijozning muhri (agar mavjud bo‘lsa) bilan taqdim etish yoki MBX tizimi orqali elektron arizani yuborish, shuningdek, KBK egasining shaxsini tasdiqlovchi hujjatning nusxasini

(pasport yoki ID-karta) taqdim etish orqali amalga oshiriladi. Shartnoma Mijozning arizasi Bankda ro‘yxatdan o‘tkazilgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi. Ushbu Ofertaning shartlarini qabul qilish Mijozning Bankning amaldagi tariflariga roziligini tasdiqlaydi.

2.3. Ushbu shartnoma KBK ochilishi, Bank tomonidan KBK chiqarilishi va KBK orqali o‘zaro hisob-kitoblar amalga oshirilishi natijasida tomonlar o‘rtasida yuzaga keladigan huquq va majburiyatlarni belgilaydi va tartibga soladi. Mijoz hisobvarag‘idan operatsiyalar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ hujjatlari, To‘lov tizimlari qoidalari va ushbu Shartnomaga muvofiq amalga oshiriladi.

2.4. KH bo‘yicha o‘zaro hisob-kitoblar faqat O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasida amalga oshiriladi.

2.5. KHni to‘ldirish KH ochgan Mijozning to‘lov topshirig‘i va ushbu Ofertaning 2-ilovasiga muvofiq KHni to‘ldirish reestri asosida amalga oshiriladi.

2.6. KHga ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlар, pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalar va dividendlar o‘tkazilishi, shuningdek, KBK orqali naqd pul yechib olish va/yoki xorijiy valyutani sotib olish taqiqlanadi.

2.7. Davlat ro‘yxatidan o‘tgan va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxslarga auktsion savdolarda ishtirot etganda KBKdan foydalanib xaridlar amalga oshirish taqiqlanadi.

2.8. KHDagi foydalanilmagan mablag‘larni qaytarish to‘lov topshirig‘i va Mijozning yozma arizasi asosida Bankda ariza ro‘yxatga olingan kundan boshlab 3 (uch) bank kuni ichida amalga oshiriladi. Bunda qaytariladigan summa KBKdagi aktiv qoldiqdan oshmasligi kerak.

3. Tomonlarning huquq va majburiyatları

3.1. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

3.1.1. KBKning shikastlanishi, yo‘qolishi/o‘g‘irlanishi yoki amal qilish muddati tugashi holatlarida, ushbu Shartnomaning 3-ilovasi shakliga muvofiq KBKnii qayta chiqarish bo‘yicha Bankka murojaat qilish;

3.1.2. Ushbu Shartnomaning 3-ilovasi shakliga muvofiq ariza bilan Bankka murojaat qilib qo‘srimcha kartani ochish;

3.1.3. KBK orqali amalga oshirilgan bahsli tranzaksiyalar bo‘yicha tekshiruv o‘tkazish uchun yozma ariza bilan Bankka murojaat qilish;

3.1.4. SMS-xabarnoma xizmatini ulab, KBKdagi qoldiq va tranzaksiyalar haqida ma'lumot olish;

3.1.5. Amaldagi Bank tariflariga muvofiq xizmat haqi to‘langan holda KH va/yoki KBKdan qog‘oz shaklida hisobdan chiqish ma'lumotlarini olish;

3.2. Mijoz O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega.

3.3. Bank quyidagi huquqlarga ega:

3.3.1. Agar Mijoz tomonidan taqdim etilgan KBKnii ochish uchun hujjatlar amaldagi qonunchilik talablariga zid bo‘lsa yoki Mijoz tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat tegishli organlar tomonidan berilgan ro‘yxatga olish hujjatlarida ko‘rsatilgan faoliyat turiga mos kelmasa, Mijozga KBK chiqarishdan bosh tortish;

3.3.2. KBK orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar amaldagi qonunchilik talablariga mos kelmasa, Mijozga KBKnii qayta chiqarishdan bosh tortish;

- 3.3.3. Tariflarni bir tomonlama tartibda o‘zgartirish va Bankning yangi tariflari kuchga kirishidan o‘n kun oldin Mijozga xabar berish sharti bilan, yangi tariflarni Bankning maxsus belgilangan joyida yoki Bankning rasmiy internet saytida joylashtirish;
- 3.3.4. Ushbu Shartnoma shartlarini Mijoz tomonidan bajarmaslik yoki noto‘g‘ri bajarish holatlarda, shuningdek, KBK amal qilish muddati tugagan holatlarda ushbu Shartnomani bekor qilish yoki uning amal qilishini to‘xtatish va KBKning bloklanishi va/yoki amal qilishini to‘xtatish;
- 3.3.5. Mijoz tomonidan Bankka zarar yetkazadigan harakatlar amalga oshirilganda, shuningdek, amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa holatlarda KBKni bloklash va/yoki uning amal qilishini to‘xtatish;
- 3.3.6. Mijoz Bank tomonidan KBK tayyorligi haqida xabar qilingan kundan boshlab 30 (o‘ttiz) kun ichida KBKni olish uchun Bankning tegishli bo‘limiga murojaat qilmasa, KBK va KHni yopish va KBKni chiqarish bo‘yicha komissiyani Mijozning depozit hisobvarag‘idan akseptsiz tartibda amaldagi Bank tariflariga muvofiq ushlab qolish;
- 3.3.7. Tranzit hisobvarag‘iga mablag‘lar kelib tushgan paytdan boshlab 3 (uch) kun ichida KHni aniqlash imkonи bo‘lmasa yoki oy oxirida tranzit hisobvarag‘ida qoldiq mavjud bo‘lsa, tranzit hisobvarag‘idan mablag‘larni Mijozning talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘iga qaytarish;
- 3.3.8. Texnik overdraft yoki to‘lov tizimi va Bankdagi texnik nosozliklar tufayli KHda hosil bo‘lgan qarzni oldindan ogohlantirmasdan, bir tomonlama tartibda Mijozning har qanday hisobvarag‘idan ushlab qolish;
- 3.3.9. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq KBK orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar bo‘yicha hujjatlarni nazorat qilish uchun Mijozdan taqdim etishni talab qilish;
- 3.3.10. KBKdan foydalanish yoki KBK ma'lumotlarining tarqalishi, shuningdek, Mijoz tomonidan Shartnoma shartlarining buzilishi natijasida Bank tomonidan ko‘rilgan barcha xarajatlarni Mijozdan ushlab qolish.
- 3.4. Bank O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega.

3.5. Mijoz majburiyatları:

- 3.5.1. KBK chiqarish va KH ochish uchun ushbu Shartnomaning ajralmas qismi bo‘lgan 1-ilovaga muvofiq Bankka ariza taqdim etish, shu jumladan Bank talab qilgan qo‘sishma hujjatlarni ham taqdim etish;
- 3.5.2. Ushbu Shartnoma maqsadlari uchun Bankka taqdim etilgan ma'lumotlarning haqqoniyligi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olish;
- 3.5.3. 1-ilovada ko‘rsatilgan ma'lumotlar o‘zgargan taqdirda, shuningdek, ushbu Shartnoma shartlarida nazarda tutilmagan, ammo Mijoz tomonidan majburiyatlarni bajarish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan boshqa ma'lumotlar o‘zgarganda, Bankni 3 (uch) bank kuni ichida xabardor qilish;
- 3.5.4. Amaldagi Bank tariflariga muvofiq KBK chiqarish uchun to‘lovni amalga oshirish;
- 3.5.5. Kartani olgan paytdan boshlab KBKdan foydalanib amalga oshirilgan barcha operatsiyalar uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olish;
- 3.5.6. Texnik overdraft yoki to‘lov tizimi va Bankdagi boshqa texnik nosozliklar tufayli hosil bo‘lgan Bank oldidagi qarzdorlikni KHga birinchi talab bo‘yicha to‘ldirish;

3.5.7. KBK va KH bo‘yicha mablag‘lar harakati hisobotlarini olish uchun tegishli Bank bo‘limida faqat vakolatli shaxs tomonidan yozma ariza asosida, amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq tayyorlangan ishonchnoma asosida taqdim etishni ta’minalash;

3.5.8. Milliy valyutada KBK ochish bo‘yicha quyidagi talablarni bajarish:

a) KHni to‘ldirishda, ushbu Shartnomaning 2.5-bandiga muvofiq, mablag‘lar tranzit hisobiga o‘tkazilgandan keyin Bankka keyingi bank kuni kechiktirmay, KHni to‘ldirish bo‘yicha 2-ilovaga muvofiq reyestrlarni, rahbar va bosh buxgalter imzosi va Mijozning asosiy muhr bilan tasdiqlangan holda taqdim etish;

b) KHda joylashtirilgan mablag‘lardan O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va ushbu Shartnoma shartlariga qat’iy muvofiq holda foydalanish;

c) Amal qilish muddati tugamasdan oldin KBKni qayta chiqarishda, Bankka yozma shaklda murojaat qilish (3-ilova) va avval olingan kartani qaytarish, shuningdek, KBKni qayta chiqarish bilan bog‘liq barcha xarajatlarni amaldagi Bank tariflariga muvofiq to‘lash;

d) Bankdan KBKni qaytarish talabi bilan yozma xabarnoma olingandan keyin 3 (uch) bank kuni ichida Bank tomonidan chiqarilgan KBKni qaytarishni ta’minalash;

e) Bankning birinchi talabi bo‘yicha KBKdan savdo va xizmat ko‘rsatish korxonalarida foydalanilganini tasdiqllovchi to‘lov hujjatlari asl nuxxalarini taqdim etish.

3.6. Mijoz O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega.

3.7. Bank majburiyatları:

3.7.1. Mijozning 2.2. va 3.5.1. bandlaridagi majburiyatlarini bajarishi sharti bilan KHni ochish va KBKni 3 (uch) bank kunida tayyorlash;

3.7.2. Mijoz tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar va hujjatlarda noaniqliklar yoki xatolar mavjudligi aniqlagan taqdirda 1 (bir) bank kuni ichida Mijozni xabardor qilish;

3.7.3. Mijozni pochta (huquqiy) manzillar, bank rekvizitlari va shuningdek, ushbu Shartnomaning to‘liq bajarilishiga ta’luqli boshqa barcha o‘zgarishlar haqida ushbu ma’lumotlarni Bank binosidagi axborot stendlarida (bukletlar), Bank veb-saytida, elektron pochta orqali va boshqa usullar orqali e’lon qilish yo‘li bilan xabardor qilish;

3.7.4. Ushbu shartnomaning 2.5. bandiga muvofiq, Mijoz tomonidan taqdim etilgan to‘lov hujjatlari asosida KHni kreditlash;

3.7.5. Bankning amaldagi Tariflariga muvofiq Mijoz tomonidan KBKdan foydalanilgan savdo-xizmat ko‘rsatish korxonalari bilan amalga oshirilgan operatsiyalar va Bank foydasiga komissiyalarni hisobdan chiqarish bilan bog‘liq operatsiyalar uchun KHni debetlash;

3.7.6. Ushbu shartnomaning 3.1.1. va 3.1.2. bandlarida nazarda tutilgan holatlarda KBKni qayta chiqarishni 3 (uch) bank kuni ichida ta’minalash;

3.7.7. Mijozning yozma so‘roviga binoan, KH bo‘yicha tranzaksiyalarning tafsilotlarini har kalendar oyda bir martadan ko‘p bo‘lmagan tartibda taqdim etish;

3.8. Bankda O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi bilan nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar mavjud.

4. Tomonlarning mas’uliyati

4.1. Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarish yoki bajarmaslik uchun tomonlar O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi va ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

- 4.2. Bank, agar kechikish Mijoz tomonidan taqdim etilgan hujjatlardagi aniqliklar yoki mos kelmasliklar tufayli yuzaga kelsa, KBKni chiqarish yoki qayta chiqarishda kechikish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olmaydi.
- 4.3. Bank, Mijoz va KBK egalarining o'rtasidagi nizolar va kelishmovchiliklar, shuningdek, KBK egalarining savdo-xizmat korxonalari bilan bo'lgan kelishmovchiliklar uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olmaydi.
- 4.4. Bank, agar savdo-xizmat korxonasi biror sababga ko'ra Mijozning KBKni xizmat ko'rsatmaslikka qaror qilsa, mas'uliyatni o'z zimmasiga olmaydi.

5. KBK va KHni Bloklash va Blokdan Chiqarish

- 5.1. KBKni bloklash quyidagi hollarda amalga oshiriladi:
- a) KHni bloklamasdan – Mijozning KBKni o'g'irlanishi/yo'qolib qolishi bilan bog'liq ushbu Shartnomaning 3-ilovasi shaklidagi arizasiga asosan;
 - b) Agar Bank KBKning firibgarlik tranzaktsiyalarida ishlatilishi mumkinligidan shubhalansa, agar KBK bilan amalga oshirilgan operatsiyalar Bank tomonidan yuqori xavfli KBK operatsiyalariga kiritilgan bo'lsa, yoki Shartnoma shartlariga mos kelmaydigan tranzaktsiyalar amalga oshirilsa;
 - c) KHni bloklash bilan – davlat organlari va/yoki mansabdor shaxslarning KH bo'yicha xarajat operatsiyalarini to'xtatish, KHdagi pulni muzlatish to'g'risidagi qarorlariga asosan, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi tomonidan belgilangan protseduralarga muvofiq yoki Shartnomada nazarda tutilgan boshqa holatlarda.
- 5.2. Bank o'z tashabbusi bilan KBK va/yoki KHni quyidagi hollarda bloklash huquqiga ega:
- a) Mijoz Shartnoma shartlarini buzsa;
 - b) Bankning fikriga ko'ra, Mijoz va/yoki Bank uchun zarar etkazilishi mumkin bo'lgan holatlar mavjud bo'lsa;
 - c) Mijoz Bankning 3.5.6. bandiga muvofiq talabi bilan zararni 2 (ikki) bank kunida to'lamasa, shuningdek, Bank oldida boshqa majburiyatlar bo'yicha qarz mavjud bo'lsa;
 - d) Agar Mijoz yoki uning KH bo'yicha moliyaviy operatsiyalariga qarshi sanktsiyalar joriy etilgan bo'lsa yoki sanktsiyalar joriy etilishi xavfi mavjud bo'lsa, qo'shimcha ma'lumot talab qilish, operatsiyalar sonini cheklash, moliyaviy operatsiyalarni cheklash yoki Shartnomaga muvofiq kelmaydigan operatsiyalarni amalga oshirishni rad etish, shuningdek, asosiy yoki ikkilamchi depozit hisobini ochish yoki KHni ochishni rad etish va Mijoz bilan Shartnomani bir tomonlama bekor qilish;
 - e) KBK va/yoki KH Shartnoma shartlariga muvofiq ishlatilmasligi, firibgarlik operatsiyalarini amalga oshirish, pulni legallashtirish va/yoki terrorizmni moliyalashtirishda foydalanilayotgani, shuningdek, to'lov tizimidan Bankka KBK ma'lumotlarining savdo nuqtalarida xavfini ko'rsatuvchi ma'lumot kiritilishi hollari mavjud bo'lsa;
 - f) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi Shartnoma bo'yicha operatsiyalarini cheklovchi o'zgarishlar kiritilishi.
- 5.3. Yuqorida ko'rsatilgan holatlarda KBKni blokdan chiqarish Bank tomonidan amalga oshiriladi, agar uni bloklash zaruriyati mavjud bo'lmasa.
- 5.4. Mijoz tomonidan KBKni bloklash bo'yicha ko'rsatmalar telefon orqali (parol so'zi va Bank xodimi tomonidan so'ralgan boshqa nazorat savollariga to'g'ri javob berish orqali) yoki bevosita yozma ariza bilan Bankka taqdim etiladi. Mijozning ixtiyori bilan bloklangan KBKni blokdan chiqarish Mijozning rasmiy xati asosida amalga oshiriladi.

5.5. Bank ushbu bo‘lim (V. KBK va KHni Bloklash va Blokdan Chiqarish) sababli KBKni bloklash sababli yuzaga kelgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan oqibatlar uchun Mijoz oldida mas’uliyatni o‘z zimmasiga olmaydi.

6. Fors-major holatlар

6.1. Tomonlar oldindan ko‘ra olmaydigan yoki oqilona chora-tadbirlar bilan oldini olish imkoniyati bo‘lmagan fors-major holatlар sababli ushbu Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarning qisman yoki to‘liq bajarilmasligi uchun mas’uliyatdan ozod qilinadi. Bunday holatlarga: suv toshqini, yong‘in, zilzila, shuningdek, urush, harbiy harakatlar, davlat organlari tomonidan amalga oshirilgan harakatlar va tomonlarning oqilona nazoratidan tashqarida bo‘lgan har qanday shunga o‘xshash holatlар kiradi.

6.2. Bunday holatlар yuzaga kelganda, tomonlar 5 (besh) kalendar kuni ichida boshqa tomonni yozma ravishda xabardor qilishlari kerak. Xabarnoma holatlarning xususiyati haqida ma'lumotni va imkon qadar, ushbu holatlarning tomonning majburiyatlarini bajarish imkoniyatiga ta’sirini baholashni o‘z ichiga olishi kerak. Xabardor qilmaslik yoki kech xabardor qilish, tegishli tomonning keyinchalik yuqorida keltirilgan holatlarga tayanish huquqidан mahrum bo‘lishiga olib keladi.

6.3. Fors-major holatlari qonun bilan belgilangan tartibda tasdiqlangan taqdirda, fors-major deb hisoblanadi.

7. Nizolarni hal qilish

7.1. Ushbu Shartnomani bajarish jarayonida yuzaga keladigan barcha nizolar tomonlar tomonidan muzokaralar yo‘li bilan hal qilinadi. Agar tomonlar o‘zaro kelishuvga erishmasa, nizo Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudiga ko‘rib chiqishga yuboriladi.

8. Shartnomaning amal qilish muddati

8.1. Tomonlar ushbu Shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega. Bunda bir tomon boshqa tomonni shartnoma bekor qilinishidan 10 (o‘n) kalendar kun oldin yozma ravishda xabardor qilishi kerak. Shu bilan birga, Mijoz KBKni Bankka qaytarishi, Bank esa KBKni bloklashi lozim. Shartnoma, ushbu Shartnomaning 8.2. bandida ko‘rsatilgan shartlar bajarilgandan so‘ng 10 (o‘n) kalendar kunidan keyin bekor qilingan deb hisoblanadi.

8.2. Shartnoma bekor qilinishi uchun zarur bo‘lgan harakatlar:

- Mijoz tomonidan barcha berilgan KBKlarni Bankka topshirish;
- Mijoz tomonidan Bankning Tariflarida ko‘zda tutilgan xizmatlar uchun to‘lovnii amalga oshirish;
- Bank tomonidan KBK bilan amalga oshirilgan operatsiyalar bo‘yicha to‘lov tizimining operatoridan olingan tranzaktsion fayllarni qayta ishlash va KBK va KH saldolari tengligini ta’minlash;
- KBKdan foydalanilgan operatsiyalar bo‘yicha barcha da’volarni hal qilish va ushbu Shartnomani bajarishga oid barcha nizolarni to‘liq hal qilish.

9. Oferta shartlarini o‘zgartirish

9.1. Bank, ushbu Ofertaning shartlarini, jumladan, tariflar va taqdim etilayotgan xizmatlar ro‘yxatini bir tomonlama o‘zgartirish va/yoki qo‘srimchalar kiritish huquqiga ega. O‘zgarishlar va qo‘srimchalar kuchga kirishidan kamida 10 (o‘n) kalendar kuni oldin bunday o‘zgarishlar haqida xabardor qilish, Bankning filiallaridagi axborot

stendlarida e'lon qilish yoki Bankning veb-saytida nashr qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

10. Maxfiylik talablar

10.1. Tomonlar ushbu Shartnoma shartlari va unga bog'liq barcha ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash uchun mas'uldirlar.

10.2. Tomonlarning o'zaro roziligi bilan, ushbu Shartnoma doirasida quyidagi ma'lumotlar maxfiy deb hisoblanadi: boshqa tomonning ma'lumotlari, uning xodimlari (shaxsiy ma'lumotlar), ushbu Shartnomanini mazmuni, uning bajarilishi va olingan natijalar, tijorat va bank sirlarini o'z ichiga oladi, O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi bo'yicha tijorat siriga kiradigan ma'lumotlarni bundan mustasno. Agar ma'lumot quyidagi holatlardan biriga to'g'ri kelsa, ma'lumot maxfiy deb hisoblanmaydi va ma'lumotni olgan tomon ushbu bandga muvofiq majburiyatlarga ega bo'lmaydi:

- a) Ma'lumotni uzatuvchi tomonning qasdi, beparvoligi yoki ehtiyoitsizligi tufayli uchinchi shaxslarga ma'lum bo'lsa;
- b) Uzatuvchi tomon tomonidan yozma ravishda chiqarilishiga ruxsat berilgan bo'lsa;
- c) Ma'lumotni uchinchi shaxslarga qonuniy davlat organlarining harakatlari yoki boshqa uchinchi shaxslarning noqonuniy harakatlari natijasida ma'lum bo'lsa, agar ma'lumotni uchinchi shaxslar tomonidan noqonuniy olish tomonlarning beparvoligi yoki ehtiyoitsizligi natijasida bo'lman bo'lsa.

10.3. Maxfiy ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga uzatish, e'lon qilish yoki boshqa tarzda oshkor qilish faqat tomonlarning kelishuvi bilan va qonun bilan belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

10.4. Maxfiylik shartlari ushbu Oferta shartlarini qabul qilishdan boshlab kuchga kiradi va Shartnoma bekor qilinishiga qadar, ushbu shartnomaning 8.1. bandiga muvofiq, davom etadi.

10.5. Maxfiylikning buzilishi tufayli yuzaga kelgan zarar O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi bo'yicha aniqlanadi va qoplanadi.

11. Boshqa shartlar

11.1. Tomonlardan birining tashkilot-huquqiy holati o'zgarganda, bankrotlik yoki likvidatsiya jarayonlari joriy etilganda, u 3 (uch) bank kuni ichida boshqa tomonni xabardor qilishga majbur.

11.2. Ushbu Oferta bo'yicha har qanday xabarnomalar va hisobotlar tomonlar tomonidan yozma yoki elektron shaklda rasmiylashtirilishi kerak va shaxsan yetkazilgan yoki MBX tizimi orqali yoki elektron pochta orqali, yuboruvchi tomonning vakili imzosi bilan yuborilgan bo'lsa, qabul qiluvchi tomon tomonidan qabul qilingan deb hisoblanadi.

11.3. Rekvizitlar, joylashuv, aloqa ma'lumotlari o'zgargan taqdirda, Mijoz 3 (uch) kalender kuni ichida Bankni o'zgarishlar haqida yozma ravishda xabardor qilishi kerak. Bank esa o'z navbatida yozma yoki elektron shaklda, MBX tizimi orqali yoki elektron pochta orqali xabardor qilishga majbur.

11.4. Ushbu Oferta o'zbek, rus va ingliz tillarida tuzilgan. Ular o'rtasida tafovutlar mavjud bo'lsa, rus tilidagi versiya ustun hisoblanadi.